

Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnoma natijasi bo‘yicha ma’lumot

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi


PQ-4796-son qarori bilan tasdiqlangan “2020 – 2025-yillarda statistikani rivojlantirishning milliy strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ning 11.4-bandiga muvofiq Davlat statistika qo‘mitasiga muntazam ravishda foydalanuvchilarning statistik ma’lumotlardan qoniqish darajasini o‘rganish yuzasidan so‘rovlar o‘tkazish vazifasi yuklatilgan.

Mazkur topshiriq ijrosi yuzasidan Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan taqdim etilayotgan statistik ma’lumotlardan foydalanuvchilarning qoniqish darajasini baholash bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazildi.


Mazkur so‘rovnoma 2022-yilning 1-iyulida boshlanib 30-sentyabr sanasida yakunlandi. O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra so‘rovnomada jami **116 nafar** foydalanuvchi qatnashgan bo‘lib, ular savolnomaga kiritilgan savollarga javob berishgan hamda statistik ma’lumotlar sifatini oshirish va umuman davlat statistika tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha taklif va mulohazalarni qoldirishgan.

O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, savollarga ishtirokchilar javob variantlari bo‘yicha quyidagicha javob berishgan (jami ishtirokchilar soniga nisbatan, % hisobida):


1-Savol. Siz qaysi turdagi foydalanuvchilar safiga kirasiz?




2-Savol. Rasmiy statistika ma’lumotlarini qanchalik tez-tez ishlatasiz?



3-Savol. Rasmiy statistika ma’lumotlaridan qanday maqsadlarda foydalanasiz?



4-Savol. Sizni statistikaning qaysi sohalari ko‘proq qiziqtiradi?



5-Savol. Rasmiy statistika ma'lumotlarini qanday olasiz?



6-Savol. Statistika ma'lumotlarning qaysi shaklda taqdim etilishini afzal ko'rasiz?



Shuningdek, statistika idoralarining faoliyatiga bog'liq bo'lgan asosiy mezonlar bo'yicha Davlat statistika qo'mitasi tizimiga quyidagicha baholar berilgan:

T/r	Mezonlar	Foydalanuvchilar tomonidan berilgan ballar (jamiga nisbatan, foizda)				
		1 ball - past baho, 5 ball - yuqori baho				
		1 ball	2 ball	3 ball	4 ball	5 ball
1	Ma'lumotlarning dolzarbligi, ehtiyojga muvofiqligi	2,2	0,0	12,2	30,0	55,6
2	Ma'lumotlardan foydalanishning qulayligi	2,8	0,9	8,3	38,0	50,0
3	Ma'lumotlarning o'z vaqtida e'lon qilinishi	2,1	3,1	39,6	22,9	32,3

9. Oxirgi 12 oyda davlat statistika organlariga so'rov bilan murojaat qildingizmi?" savoliga "Ha" javobini belgilagan foydalanuvchilar bo'yicha javoblar (1 ball - past baho, 5 ball - yuqori baho)

T/r	Savollar	1 ball	2 ball	3 ball	4 ball	5 ball
9.1	Ma'lumotlarning so'rovingiz talabiga muvofiqligi	0,0	7,9	10,5	63,2	18,4
9.2	So'rovingizga o'z vaqtida javob berilganligi	0,0	8,3	0,0	5,6	86,1
9.3	Xizmat ko'rsatish sifati (xodimlar malakasi, xushmuomalalik va b.)	2,7	2,7	75,7	0,0	18,9